

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

TerDPI pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi magistranti

Otamurodova Farida

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik va jamiyat o'sishi, rivojlanishi nuqati nazari bilan qaraganda talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'pgina jihatdan ustunliklar olib kelishi haqida so'z yuritilgan. Bo'lajak kasb egalarining dunyoqarashlarini keng shakllantirish, yosh avlodni demokratik va axloqiy ruhda tarbiyalash, hamda buning uchun qanday usul, qanday metodlardan foydalanish xususida mulohazalar olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *muloqot, muloqot madaniyati, shaxs, talaba, madaniyat, muomala.*

Bo'lajak kasb egalari ya'ni talabalar davlat ta'lim standartlariga to'liq javob bera oladigan yetuk mutaxassis bo'lishi lozim, buning uchun har tomonlama salohiyatli, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan kamolga yetgan, kasbiy ilmga ega bo'lishi talab etiladi. Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi fazilatlari va hattoki nuqsonlari muloqot, kommunikasion jarayonning mahsulidir.

Murabbiy bola shaxsini tarbiyalar ekan, uni yetuk inson qilib shakllantirishga harakat qiladi. Bolaning butun bir faoliyati, harakteri, o'zini tutishi, o'zlashtirishini o'qituvchi kuzatadi va nazorat qiladi. Undagi kamchilik va xatolarni to'g'ri yo'l bilan korreksiyalash uchun murabbiy shaxsiga avvalo muloqot madaniyati zarurdir. Agarda o'qituvchida muloqot madaniyati kuchli shakllangan bo'lsa va albatta buni ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga singdiraolsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asosan, o'qituvchi muomala madaniyati o'quvchilarni tarbiyalovchi vosita sifatida qaraladi. Bolada shakllanayotgan turli xil odatlar, o'zgarishlarga qarab kelajakda qanday yo'l tutish, qanday usul, qanaqa tarbiyaviy metod va qanday muloqot ta'sir ko'rsatishini rejalashtiradi. Bunda yana bir shunday tarafi borki, murabbiyda muloqot darajasi yuqori bo'lsa, bolada ham bu o'z aksini ko'rsatadi.

Shunday ekan ta'lim jarayonida muomalaning o'rni judayam muhim. Muomala – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi harakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Muomala ushbu tarkiblardan tashkil topadi:

1. Kommunikativlar (bir tomonlama axborot uzatishdir).
2. Interaktivlar (ikki tomomnlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptivlar (o'zaro bir-birini idrok qilishlar).

Yosh pedagog kadrlar doimiy ravishda o'z muomala madaniyati ustida ishlashi, kamchiliklarini bartaraf etishi, bolalar bilan ko'proq muloqotda bo'lib o'z muomala madaniyatini pedagogik qonun qoidalardan chiqmagan va ularga muvofiqlashtirgan holatda shakllantirishi kerak. Milliy, tarbiyaviy ananalaridan o'z muloqoti jarayonida o'z o'rnida qo'llay bilishni, fikrlari bilan chambarchas holatga keltirishni bilishi lozim. B.G. Ananev fikricha: “Muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy

bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'naviyat sohasida bu kabi dolzarb mavzularni olg'a surish milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning buguni va tarixi, madaniyati og'ushida tarbiya toppish fozil insonlarni kamolga yetkazishning ayni bir yo'li ekanligini yana bir bor yodimizga solidi. Har qanday sohada va faoliyatda insonlarning bir-biri bilan muloqotga kirishishi, ularning ma'lumot almashishi, o'zaro til topisha bilishi insondan muaomala madaniyatini talab etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida vatanning taqdiri, xalqning kelajagi, istiqbolli marralarning sururi yoshlarimizning ongiga insoniylikni, demokratik qarashlarni to'la singdirishni talab etmoqda. Bilamizki, sharq va g'arb madaniyati o'tmishda butkul boshqa-boshqa yo'llarda bo'lgan. Ammo bugungi kunda o'z sof madaniyatimizni ilmtalablarimizga, millatimizga mukammal tarzda anglatmasak, yosh avlodlarimizni miliy madaniyat, muloqot odobi, insoniylik tamoyillarining mukammal namunasi o'laroq singdirmasak, ko'plab imkoniyatlarni qo'ldan beramiz. Shunday ekan, buyuklarimiz aytganidek, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga qarshi ma'rifat ila kurashmoq lozim bo'lgan vaqt ayni vaqtdir.

Ilmtalablarimizni milliy ruhda, urf-odatu qadriyatlarimiz ufurib turadigan zabonga ega qilib shakllantirishimiz, o'zimizdan keyin avlodni chinakkam savodli, Vatanga muhabbatli, ona yurtga sadoqatli va oilaparvar qilib tarbiyalashning fundamental negizlaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, bu harakatlar avlodlar almashinishi va yillar, asrlar o'tishi, taqdir zarbalari va hokazolar ta'sir etaolmaydigan o'zligimizni mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib -intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarga muljallangan Xarakterlar strategiyasi 2017, 7-fevral– <http://tafsilot.uz>
3. A.A. Bodalev SHaxs va muloqot. M.17 – s.m.
4. M. (1997). Millatlararo kommunikativ kompetentsiyani o'rgatish va baholash. Klivedon, Buyuk Britaniya: Ko'p tilli masalalar.
5. Vikipediya sayti.